

**RAQAMLI JAMIYAT SHAROITIDA SHAXSIY MA'LUMOTLARNI HUQUQIY
HIMOYA QILISHNING DOLZARB MASALARI**

O'rinboyeva Elnora Furqat qizi
Toshkent viloyati Bekobod tumani
Guliston davlat pedagogika instituti talabasi
orinboyevaelnora67@gamil.com

Annotatsiya:

Mazkur maqolada raqamli jamiyat sharoitida shaxsiy ma'lumotlarni huquqiy himoya qilish masalalari tahlil qilinadi. Axborot kommunikatsiya texnologiyalarning jadal rivojlanishi natijasida shaxsiy ma'lumotlardan foydalanish ko'lami kengayib, ularning noqonuniy tarqalishi, o'g'irlashishi va suiiste'mol qilinishi xavfi ortib bormoqda. Shaxsiy ma'lumotlarning himoyasi huquqlarini ta'minlashning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Maqolada O'zbekiston Respublikasida shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilishga oid qonunchilik bazasi, amaliyotda uchrayotgan muammolar hamda ularni bartaraf etish yo'llari ilmiy asosda yoritilgan.

Kalit so'zlari: Raqamli jamiyat, shaxsiy ma'lumotlar, huquqiy himoya, axborot xavfsizligi, kiberxavfsizlik qonunchilik.

Introduction

Bugungi kunda jamiyatning barcha sohalarida raqamli texnologiyalar keng joriy etilmoqda. Elektron hukumat ta'lim platformalari ijtimoiy tarmoqlar va mobil ilovalar orqali millionlab yig'ilmoqda, saqlanmoqda va qayta ishlanmoqda, ushbu jaryonlar inson hayobini sezilarli darjada yengillashtirayotgan bo'lsada, shaxsiy hayot daxlsizligiga bo'lgan tahdidlarni ham kuchaytirmoqda. Shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish masalasi inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash bilan chambarchas bog'liq.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida har bir shaxsning shaxsiy hayoti, yozishmalari va telefon so'zlashuvlari sir saqlanishi kafolatlangan, biroq raqamli muhitda ushbu huquqlarni amalda ta'minlash murakkab jarayon bo'lib qolmoqda. So'nggi yillarda kiberjinoyatchilikning ko'payishi, ma'lumotlar bazalarining buzilishi, shaxsiy ma'lumotlarning noqonuniy savdosi kabi holatlar ko'payib bormoqda. Bu esa shaxsiy ma'lumotlarni huquqiy himoya qilish mexanizmlarini takomillashtirish taqazo etadi.

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi raqamli jamiyat sharoitida shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilishning dolzarb muammolarini aniqlash mavjud qonunchilik tahlil qilish va takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishdan iborat.

TADQIQOT METODLARI

Tadqiqot jarayonida umumilmiy va maxsus huquqiy metodlardan foydalaniladi. Jumladan, normativ huquqiy hujjatlarni tahlil qilish metodi orqali O'zbekiston Respublikasining shaxsiy

ma'lumotlarni himoya qilishga oid qonunlar o'rganiladi. Tadqiqotlash metodi yordamida milliy qonunchilik xalqaro huquq normalari bilan solishtiriladi.

Shuningdek, mantiqiy tahlil va umumlashtirish metodlari asosida muammolar tizimlashtiriladi, hamda xulosalar chiqariladi. Ilmiy maqolalar, monografiyalar va statistik ma'lumotlar tadqiqot manbasi sifatida foydalaniladi.

NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha muayyan huquqiy asoslar mavjud. Xususan "Shaxsiy ma'lumotlar" to'g'risidagi qonun ushbu sohadagi asosiy normativ hujjat hisoblanadi. Unda shaxsiy ma'lumotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va uzatish tartiblari belgilanagan. Biroq amaliyotda bir qator muammolar mavjud.

Fuqarolarning shaxsiy ma'lumotlar bilan ishlash bo'yicha huquqiy savodxonligi past. Ayrim tashkilotlarda axborot xavfsizligi choralariga yrtarlicha e'tibor berilmaydi. Huquqbuzarliklar uchun javobgarlik mexanizmlarin yetarli darajada samarali emas. Shuningdek, ko'plab fuqarolar o'z shaxsiy ma'lumotlarning qayerda va qanday foydalanayotganidan bexabar.

MUHOKAMA

Raqamli jamiyatda shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish masalasi faqat huquqiy emas, balki texnologik va ijtimoiy ahamiyatga ham ega. Yevropa ittifoqida shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha qat'iy talabalar joriy etilgan. O'zbekistonda ham ushbu tajribani inobatga olgan holda qonungilikni takomillashtirish texnik himoya vositalarni kuchaytirish va mutaxassislar tayyorlash zarur. Bunda tashqari, aholining huquqiy madaniyatini oshirish bo'yicha targ'ibot ishlartini kuchaytirish lozim.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, raqamli jamiyat sharoitida shaxsiy ma'lumotlarni huquqiy himoya qilish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda. Ushbu sohada qonunchilikni izchil takomillashtirish, huquqbuzarlik uchun javobgarlikni kuchaytirish va aholining huquqiy savodxonligini oshirish zarur.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
2. O'zbekiston Respublikasi " Shaxsiy ma'lumotlar to'g'risidagi" Qonun
3. Karimov. I.A. "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch".
4. Xudoyberdiyev B. Axborot xavfsizligi asoslari.